

A-masala. Teskari tartib

n natural soni hamda n ta butun sonlar ketma-ketligi berilgan. Shu sonlarni teskari tartibda chiqaruvchi dastur tuzing.

Kiruvchi ma'lumot

Birinchi satrda n ($1 \leq n < 1000$) natural soni berilgan. Ikkincha satrda n ta butun son probel bilan ajratilgan holda berilgan.

.

Chiquvchi ma'lumot

Bitta satrda berilgan n ta sonni teskari tartibda probel bilan chiqaring.

Misol

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
5 1 2 3 4 5	5 4 3 2 1
6 -151 51215 541321 321231 -4 2	2 -4 321231 541321 51215 -151
3 0 0 0	0 0 0

B-masala. Ko'priklar.

TATU talabalari sayohatga chiqishmoqchi. Ular sayohatga avtobusda borishmoqchi. Ularning avtobusning balandligi 437 sm ga teng. Ularning yo'llarida bir nechta ko'priklar mavjud. Afsuski ko'priklarning hammasi ham baland emas. Ular hamma ko'priklarni balandliklarini bilishadi. Talabalar orasidagi Adham ular qaysi ko'prikga yetib borganlarida sayohatni to'xtatishga majbur bo'lishlarini bilmoqchi. U sizlardan yordam so'rayapti. Unga yordam bering.

Kiruvchi ma'lumot

Birinchi satrda ko'priklar soni n ($1 \leq n \leq 1000$), ikkinchi satrda esa ketma-ket ko'priklarning balandliklari (sm hisobida) beriladi.

Chiquvchi ma'lumot

Siz Adhanga yordam bering. Ular qaysi ko'prikga borib o'ta olmasliklarini aniqlang. Masalan k-ko'prikda o'ta olishmasa "Crash" k ni chiqaring. Agar hamma ko'prikda o'ta olishsa "No Crash" chiqaring. Katta va kichik harflarga e'tibor bering.

Misol

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
1 763	No Crash
3 763 245 113	Crash 2
1 437	Crash 1

C-masala. Musbat, nol va manfiy sonlar soni.

Bitta satrda bir-biri bilan probel bilan ajratilgan sonlar berilgan (nechtaligi noma'lum). Ulardan nechitasi musbat, nechitasi nol va nechitasi manfiy ga tengligini aniqlovchi dastur tuzing.

Kiruvchi ma'lumot

Bitta satrda probel bilan ajratilgan butun sonlar berilgan. Sonlar modul jihatdan 10^9 dan katta emas. Sonlar soni 10000 dan kam ekanligi kafolatlangan.

Chiquvchi ma'lumot

Bitta satrda 3 ta butun son, Musbat sonlar soni, nollar soni, manfiy sonlar soni.

Misol

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
0 -1 -2 0 -4	0 2 3
1 2 3 0 1 -2 5 0 -4 -5 -125 5412	6 2 4

D-masala. Girls and Boys.

TATUda n ta guruh bor. Har bir i -guruhda $q[i]$ ta qiz bola va $b[i]$ ta o'gil bola o'qiydi. Sizga vazifa qilib o'gil bolalar ko'pmi yoki qiz bolalar ko'pligini aniqlash vazifasi qo'yilgan.

Kiruvchi ma'lumot

Birinchi qatorda guruhlar soni n ($0 < n \leq 1000$) berilgan. Qolgan n ta satrda ikkitadan son bilan i -guruhdagi qiz bolalar $q[i]$ va o'gil bolalar $b[i]$ soni ($0 \leq a[i], b[i] \leq 1000$) berilgan.

Chiquvchi ma'lumot

Agar universitetda qiz bolalar ko'p bo'lsa "Girls" va nechta ko'p ekanligini probel bilan, agar universitetda o'gil bolalar ko'p bo'lsa "Boys" va nechta ko'p ekanligini probel bilan, agarda ular soni teng bo'lsa "Equal" so'zini chiqaring.

Misol

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
3 1 2 3 1 5 5	Girls 1
5 5 1 6 10 2 5 1 5 5 9	Boys 11
6 1 3 3 5 6 2 2 8 8 1 2 3	Equal

E- masala. Kun va oy

Yil ($1 \leq m \leq 9999$) va kun ($1 \leq n \leq 365$) raqamlari berilgan. Siz m-yildagi n-kunning qaysi oyga to'g'ri kelishini topishingiz kk. Masalan, 2013 yilning 10 dekabri 2013 yilning 344 kuniga to'g'ri keladi. Sizga 2013 344 sonlari berilsa, 10 December chiqarishingiz kerak. Oy kunlari: January, February, March, April, May, June, July, August, September, November va December.

Kiruvchi ma'lumot

Birinchi satrda yil m ($1 \leq m \leq 9999$) va kun n ($1 \leq n \leq 365$) sonlari probel bilan berilgan.

Chiquvchi ma'lumot

Berilgan sonlar uchun kun va oyni probel bilan chqaring. Katta va kichik harflarga e'tibor bering.

Misol

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
2013 1	1 January
204 60	29 February
2013 344	10 December

F- masala. Kublar yig'indisi

N natural soni berilgan. Shu sonni 3 ta natural sonning kublari yig'indisi shaklida ifodalash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlovchi dastur tuzing.

Kiruvchi ma'lumot

N ($0 \leq N < 10000000$) natural soni berilgan..

Chiquvchi ma'lumot

agar berilgan sonni 3 ta sonning kublari yig'indisi shaklida ifodalash mumkin bo'lsa "YES" aks holda "NO" chiqaring.

Misol

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
277684	YES
10001	NO
8	YES

1-test $277684 = 11*11*11 + 12*12*12 + 65*65*65$;

2-test ifodalab bo'lmaydi shuning uchun NO;

3-test $8 = 2 * 2 * 2 + 0 * 0 * 0 + 0 * 0 * 0$